

SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN QISHLOQ XO'JALIGIDAGI ILMIY TADQIQOTLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sovet hokimiyati yillarida nafaqat Farg'ona vodiysida balki butun O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar, ularning ijobiy natijalari bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Paxta respublikamiz qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biridir. Dehqonchilik madaniyatini yanada oshirish, fan-texnika yutuqlarini va ilg'or tajribasini keng joriy etish yo'li bilan hosildorlikni oshirish masalalari diqqat-e'tiborda bo'lishi kerak[3]. Qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyoti ko'p yo'nalishlar bo'yicha bormoqda. Ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish fan-texnika taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Bu, avvalo, qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasini belgilaydigan sifat jihatidan yangi mashinalar va ularning sistemalari paydo bo'lganligida yaqqol ko'rinmonda.

Tayanch iboralar. Qishloq xo'jaligi, Kolxozlar va Sovхозlar, paxtachilik, don xo'jaligini, chorvachilik, kompleks mexanizatsiyalash va elektrlashtirish, Tirik organizmlar, O'zbek seleksionerlari, paxtaning «Toshkent-1» navi, nurlantirilgan chigit, Samarqand Davlat Universiteti, O'rta Osiyo paxtachilik seleksiyasi va urug'chiligi instituti.

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОВЕДЕННЫЕ В УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР В ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ПРАВИТЕЛЬСТВА

Аннотация. В статье представлены сведения о научных исследованиях, связанных с сельским хозяйством, за годы Советской власти не только в Ферганской долине, но и во всей Узбекской ССР, и их положительные результаты. Хлопководство является одной из важных отраслей сельского хозяйства нашей республики. Следует обратить внимание на вопросы дальнейшего повышения культуры земледелия, повышения производительности труда за счет широкого внедрения научно-технических достижений и передового опыта[3]. Научно-техническое развитие в сельском хозяйстве идет по многим направлениям. Основой научно-технического развития является комплексная механизация и автоматизация производства. Это наглядно проявляется, прежде всего, в появлении качественно новых машин и их систем, определяющих материально-техническую базу сельского хозяйства.

Ключевые фразы. Сельское хозяйство, Колхозы и совхозы, хлопководство, зерновое хозяйство, животноводство, комплексная механизация и электрификация, Живые организмы, Узбекские селекционеры, сорт хлопчатника «Ташкент-1», облученные семена, Самаркандский государственный университет, Среднеазиатский институт селекции и семеноводства хлопчатника.

SCIENTIFIC RESEARCH CARRIED OUT IN THE UZBEKISTAN SSR DURING THE YEARS OF SOVIET RULE

Abstract. This article presents information on scientific research related to agriculture during the years of Soviet power not only in the Fergana Valley, but also in the entire Uzbek SSR, and their positive results. Cotton is one of the important sectors of agriculture in our republic. Attention should be paid to the issues of further improving the culture of farming, increasing productivity through the widespread introduction of scientific and technical achievements and

advanced experience [3]. Scientific and technical development in agriculture is progressing in many directions. The basis of scientific and technical development is the complex mechanization and automation of production. This is clearly evident, first of all, in the emergence of qualitatively new machines and their systems, which determine the material and technical base of agriculture.

Key words: Agriculture, Collective and State Farms, cotton growing, grain farming, livestock breeding, complex mechanization and electrification, Living organisms, Uzbek breeders, cotton variety "Tashkent-1", irradiated seeds, Samarkand State University, Central Asian Institute of Cotton Breeding and Seed Production.

Kirish. Butunittifoq paxtachilik ilmiy tadqiqot intitutining ilmiy xodimi Erkin Haydarov nurlantirilgan chigit xosiyati to'g'risida ma'lumot berdi. Mamlakatning ko'pgina ilmiy muassasalarida o'simliklar urug'ini ekishdan oldin radioaktiv izotoplar bilan nurlantirish ustidagi tajribalar O'zbekiston sharoitida ham o'rganilgan. Jumladan, mamlakatimizda urug'lik chigitni nurlantirishning afzalliklari ma'lum bo'lib qoldi. Samarqand davlat universiteti, O'rta Osiyo paxtachilik seleksiyasi va urug'chiligi institutida olib borilgan tajribalarda chigitni unchalik katta bo'lmagan me'yorda nurlantirish niholning tez unib chiqishi, tezroq shonaga kirishi va oddiy usulda ekilgan chigitga nisbatan barvaqt gullashi hamda ortishiga imkon berayotganligi aniqlandi. Hozirgi tajribalar shuni ko'rsatadiki, nurlantirilgan chigit barvaqt unib chiqadi, gektar boshiga 2 sentnergacha hosil qo'shadi, ko'chatlar zich va sog'lom bo'ladi. G'oz'a bir vaqtda shonalab, bir vaqtda gullaydi va hosilga kiradi [5].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. G.K.Rjevskiy. "Paxtachilikda yangi muvaffaqiyatlar." Toshkent-O'zbekiston SSR davlat nashriyoti. 1959.96-97-b., S.Hidoyatov. "Paxtachilikda fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni propaganda qilish minbari." Toshkent-1977.5-b – kabi adabiyotlar asosida Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida 1970-1991-yillarda paxtachilik, donchilik va qishloq xo'ligi boshqa tarmoqlarining rivojlanishi yoritib berilgan.

Muhokama. Hozirgi zamon qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida murakkab ilmiy, agrotexnik, injenerlik va iqtisodiy vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan, mehnat kollektivlariga rahbarlik qila oladigan, minglarcha kishilarning mehnatini ilmiy asosda tashkil eta biladigan, qishloq xo'jaligini mohirlik boshqaradigan, mehnatkashlar o'rtasida tarbiyaviy ishlar olib borib, ularning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydigan va rivojlantiradigan yetuk mutaxassislariga tobora katta ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jalik mutaxassislardan ayniqsa kolxoz va sovxoz rahbarlaridan faqat maxsus bilimni chuqur egallashnigina emas, balki bir qator fazilatlarini, eng avvalo, yuksak onglilikni, mehnatga kommunistik munosabatda bo'lishni, kommunistik axloq prinsiplari va normalariga qat'iy rioya qilishni, odamlarga nisbatan sezgirlik bilan qarashni ham talab etadi. Qishloq xo'jalik ziyolilarining tashkil topganligi va rivojlanib borayotganligi sosializmning eng katta muvaffaqiyatlaridan biri, qishloqda madaniy revolyutsiyaning qonuniy natijasidir. Qishloq xo'jaligida kommunizmning moddiy-texnika bazasini barpo etishda ziyolilarning roli g'oyat katta. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini takomillashtirish xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini qamrab olgan fan-texnika revolyutsiyasining tarkibiy qismidir. Kolxozlar va sovxozlar moddiy-texnika bazasini kuchli darajada rivojlantirish yo'li bilangina qishloq xo'jaligini sezilarli darajada va keng ko'lamlarda intensivlashtirish hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining barcha tarmoqlarini tez suratlarda o'stirish mumkin bo'ladi. Bu vazifalarni hal etishda shahar va fan-texnika ziyolilari yetakchi kuch sifatida maydonga chiqadilar. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligini yuksaltirish faqatgina qishloq mehnatkashlariga emas, balki ko'p jihatdan sanoat xodimlari, fan va texnika arboblari ham bog'liq. Bu vazifalarni hal etish uchun esa fanning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan uzviy bog'lanishiga, fan-texnika taraqqiyotini jadal rivojlantirishga, qishloq mehnatkashlarining madaniy-texnikaviy darajasini yuksaltirishga erishmoq zarur. Partiya don xo'jaligini, chorvachilikni oqilona boshqarish, texnika ekinlari, kartoshka, sabzavot, meva yetishtirishni yanada rivojlantirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash, normallashtirish ishlarini tashkil etish va boshqa sohalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish qishloq xo'jalik ziyolilarining muhim burchidir, deb hisoblamogda [2].

O'zbekistonda qishloq xo'jalik masalasi bilan shug'ullanuvchi 18 ta ilmiy tadqiqot instituti, 14 ta tarmoq tajriba stansiyasi, 22 ta tayanch punkti ishlab turibdi, ularda mingdan ortiq ilmiy xodim mehnat qilmoqda. Ana shu olimlar va mutaxassislar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yangi ilmiy tavsiyalarni joriy etish uchun ko'p ish qildilar. Qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyoti ko'p yo'nalishlar bo'yicha bormoqda. Ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish fan-texnika taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Bu, avvalo, qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasini belgilaydigan sifat jihatidan yangi mashinalar va ularning sistemalari paydo bo'lganligida yaqqol ko'rinmonda.

O'zbekiston olimlari paxtachilik uchun a'lo darajadagi mashinalarning ko'pgina namunalarini yaratdilar. Konstruktorlardan A.N.Prixodko, M.N.Markov, V.T.Tyutkov, P.F.Tlazarov, K.I.Yushin va boshqalar birinchi darajali paxta terish mashinalarini ixtiro qildilar. Ilmiy muassasalar ishlab chiqarish xodimlarining ishtirokida qishloq xo'jaligini kompleks mexanizatsiyalash va elektrlashtirish uchun mashinalar sistemasini yaratdilar. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligining texnikaviy qurollanishi sezilarli darajada o'sdi. Masalan, O'zbekistonda qishloq xo'jaligining energetika quvvati 1972-yili 1940-yilga nisbatan 9 baravar ko'paydi. Shuni aytib o'tish kerakki, qishloq xo'jalik texnikasining o'sishi son jihatidagina berib qolgani yo'q. Qishloq xo'jaligining ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishda chuqur sifat o'zgarishlari paydo bo'ldi, ya'ni qo'l mehnati o'rnini tobora mashinalar egallayapti, o'z navbatida eskirgan texnika eng yangilari bilan almashinyapti. Bu sohada mutaxassislar bir qator muhim muammolarni ishlab chiqmoqdalar. Mashina-traktor agregatlarining ish tezligini oshirish sohasida ko'pgina ishlar qilinyapti. Bu tadbirlar qishloq xo'jalik ishlari tannarxini kamaytirish, ko'plab arzon mahsulot yetishtirishga imkon tug'diradi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining texnika bilan yuksak darajada qurollanganligi, yetuk mexanizator kadrlarga ega bo'lganligi, yuqori unumli yangi mashinalar, qurollar va mexanizmlar joriy etilayotganligi natijasida kolxoz va sovxozlar paxtachilikni mexanizatsiyalashtirish, mehnat unumdorligini oshirish sohasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Fan-texnika ziyolilarining vakillari tomonidan yaratilgan qishloq xo'jalik mashinalari og'ir qo'l mehnatini surib chiqarmoqda. Ilgari O'zbekistonda bir gektar maydonda paxta yetishtirishga yil mobaynida 3000-3400 kishi-soat sarflagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1972-yili 900 kishi-soatga to'g'ri keldi. Bir soatlik mexanizatsiyalashgan mehnat 36 soatlik qo'l mehnatini qisib chiqardi. Umumiy xarajatlar esa 3,8 baravar kamaydi. Texnika yig'im-terim muddatlarini keskin darajada qisqartirishga yordam berdi. Paxtachilikda eng ko'p mehnat talab qilinadigan jarayon hosilni yig'ib-terib olishni mexanizatsiyalash darajasi tinmay o'smonda. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini elektrlashtirishda ham ziyolilar muhim rol o'ynamoqdalar. Hozirgi vaqtda elektrdan ishlab chiqarish jarayonlarida keng foydalanilmoqda, u qishloq mehnatkashlari turmushiga mustahkam kirib borgan. Agar 1940-yili O'zbekiston qishloq xo'jaligida 79,1 million kilovatt-soat elektr energiyasi iste'mol qilingan bo'lsa, 1972-yili 2564,1 million kilovatt-soat, ya'ni qariyb 33 baravar ko'p energiya ishlatildi. Ziyolilar irrigatsiya loyihalarini ishlab chiqib, sug'orish kanallari qurish va boshqa ishlarda ham faol qatnashmoqdalar. Hozir O'zbekistondagi irrigatsiya kanallarining umumiy uzunligi 100 ming kilometrdan ortadi, umumiy quvvati 185 ming kilovattga ega bo'lgan 916 ta nasos stansiyasi o'rnatilgan, o'nlab yirik suv omborlari qurilgan. Shu tadbirlar natijasida Sovet hokimiyati yillarida sug'oriladigan yerlar ikki baravar o'sdi, yerlarning suv bilan ta'minlash darajasi keskin darajada yaxshilandi [4].

Natija. Tirik organizmlar - o'simlik va hayvonlarning o'zini takomillashtirish, ularning mahsuldorligini oshirish va sifat belgilarini yaxshilash xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Sovet agrobiologiya fani tabiatni o'rganishning qudratli metodi - materiadistik dialektika bilan qurollangan qishloq xo'jalik ziyolilari xalq seleksionerlari bilan hamkorlikda ijodiy izlanib, paxta, kanop, uzum, sholi, bug'doy va boshqa ekinlarning yuksak hosil beradigan navlarini yaratdilar. Dehqonchilik va chorvachilikni yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqdilar. O'zbek seleksionerlari chigitning dunyoda eng yukori hosilli navini yaratdilar. Ayniqsa, V. I. Lenin nomli Butunittifoq qishloq xo'jalik akademiyasining muxbir a'zosi, biologiya fanlari doktori S. M. Mirahmedov tomonidan yaratilgan viltga chidamli «Toshkent-1», Y.P.Xutorov ixtiro qilgan tezpishar ingichka tolali 6030 chigit navlari katta foyda

keltirmoqda. Paxtachilik ancha ilgari lab ketdi. Respublikada 1932-yili 804 ming tonna paxta olingan edi. 1974-yili esa 5330 ming tonnalik xirmon ko'tarildi.

Xulosa. Toshkent viloyatidagi «O'zbekiston SSR besh yilligi», «Chinoz», «Ximik» sovxozlari, Namangan viloyatining Pop rayonidagi Lenin nomli sovxoz kabi ilg'or xo'jaliklarning tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, agar kolxoz va sovxozlar yaxshi mutaxassis kadrlarga ega bo'lsalar, ular yuksak iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishadilar. Paxta hosili va chorva mahsuldorligi ham ortiq bo'ladi. Partiya agronomlar zootexniklar, veterinarlari, injenerlar, agroximiklar, iqtisodchilar va qishloq xo'jaligi boshqa mutaxassislarining burchi sotsialistik qishloq xo'jalik praktikasi ilgari surayotgan masalalarni hal etishda, ishlab chiqarish bilan aloqani har tomonlama mustahkamlashdan iborat deb hisoblamogda. Partiya qishloq ziyolilarini fan-texnika taraqqiyotini yanada tezlashtirish, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining barcha turlarini keskin darajada ko'paytirish va sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini tinmay oshirib, mahsulot tannarxini kamaytirib borishga da'vat etmogda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 129-132.
2. G.K.Rjevskiy. Paxtachilikda yangi muvaffaqiyatlar. Toshkent-O'zbekiston SSR davlat nashriyoti. 1959.96-97-b.
3. "Qishloq haqiqati" 1975-yil 3-yanvar № 2-nashr 1-bet
4. "Qishloq haqiqati" 1975-yil 5-yanvar № 4 (307), 3-bet
5. S.Xidoyatov. Paxtachilikda fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni propaganda qilish minbari. Toshkent-1977.5-b